

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

AXBOROT XATI

1. Sizga shuni ma’lum qilamizki, 2024 yil 17-18 dekabr kunlari Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida “Xalqaro tajriba: ta’limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy mashinasozlik va muhandislik yo‘nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlash istiqbollari”.

“Международный опыт: перспективы подготовки высококвалифицированных кадров в сфере современного машиностроения и инжиниринга в условиях модернизации образования”.

mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o‘tkaziladi. Ushbu anjumanga ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borayotgan barcha professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va izlanuvchilar taklif etiladi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani doirasida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha yalpi va sho‘ba majlislari o‘tkazilishi rejalashtirilgan:

- **1-sho‘ba:** Klaster tizimida paxta sanoati, mexanika, to‘qimachilik xomashyolarini qayta ishlashning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlari
- **2-sho‘ba:** To‘qimachilik iplari va matolarini ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish istiqbollari
- **3-sho‘ba:** Yengil, kimyo va matbaa sanoati ishlab chiqarishidagi innovatsion texnologiyalar
- **4-sho‘ba:** Sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda Dual ta’limning hamda fundamental, ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogika fanlarini o‘qitishning o‘rni

Anjuman ishchi tillari: o‘zbek, rus va ingliz. Yozilgan ishlar yuqoridagi sho‘balardan biriga mos kelishi lozim va ularda keltirilgan g‘oyalar, dalillar va raqamlarga mualliflar javobgardir.

RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

Materiallarda ishning mazmun mohiyati aniq, tushunarli bayon etilishi lozim. Maqolalar elektron variantda mualliflar tomonidan taqdim etiladi.

Matnlar hajmi to‘liq, kamida 2 yoki 3 bet, A4 formatli (210x297 mm), 14 o‘lchamli shriftda, 1,0 interval bilan Microsoft Word 2010 va undan yuqori versiyadagi dasturida, Times New Roman shriftida hamma tomondan 25 mm hoshiya va xat boshi (abzats)ga 1,25 sm joy qoldirib tayyorlanadi.

1. Birinchi qatorida **BOSH VA QALIN HARFLARDA MAVZUNING NOMI** sahifaning o'rtasida, 2-qator bo'sh qoldiriladi, 3-qatorda o'ng tomonda muallifning ilmiy unvoni, ismi – sharifining faqat bosh harflari va familiyasi; 4-qatorda o'ng tomonda ish joyi (tashkilot nomi) ko'rsatiladi.

2. *1,0 interval tashlab o'zbek, rus va ingliz tillarida qisqa annotatsiya (kursiv holatda, har bir tilda yozilgan annotatsiya hajmi 4 qatorgacha) beriladi.* Keyin 1,0 interval tashlab maqolaning asosiy matni keltiriladi.

3. Mualliflar soni 3 tadan ko'p bo'lishi, matnda avtomatik raqamlash va boshqa avtomatik tarzda bajariluvchi buyruqlardan hamda avtomatik havola (ssilka) dan foydalanish mumkin emas. Havolalar foydalanilgan adabiyot raqamini ko'rsatgan holda quyidagi ko'rinishda berilsin:keltirilgan [2]. **Foydalanilgan adabiyotlarda Web of Science, Scopus va ScienceDirect xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar ba'zasidan foydalanilgan bo'lishi shart.**

4. Materiallardagi barcha sxema, gistogramma, diagramma va boshqa grafik ma'lumotlar tartib bilan raqamlangan holda va .jpg formatida (har bir rasm hajmi ko'pi bilan 500 Kb gacha, skaner qilib ko'chirilmagan bo'lishi, 1 varaq hajmining 50 % idan ortiq joyni egallamagan) bo'lishi lozim. Formulalar "**Formula redaktorida**" yozilgan bo'lishi shart. Rasmlardagi yozuvlar xira va juda kichik hamda matn shriftidan katta bo'lmasligi lozim.

5. Elektron nusxadagi fayl nomi seksiya raqami bilan lotin alifbosida birinchi muallifning ismi familiyasi ko'rinishida bo'lishi kerak (Masalan: 1-seksiyadagi fayl nomi 1-B.Olimov, agar maqola 2 ta bo'lsa 1-B.Olimov-1 va 1-B.Olimov-2 va h.k.).

6. Matn oxirida asosiy foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

7. Maqola kompyuterda matn terish qoidalariga amal qilgan holda tayyorlanishi, grammatik, orfografik va boshqa xatolardan holi bo'lishi, yuqoridagi sho'balardan biriga mos kelishi hamda ilmiy va ma'no jihatdan tugallangan bo'lishi lozim.

8. Maqolalar Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining anjumanlar.uz sayti orqali 25 noyabrgacha qabul qilinadi*.

Belgilangan muddatdan kechiktirilgan maqolalar qabul qilinmaydi.

***yuqorida keltirilgan talablarga mos kelmagan va anjumanda ma'ruza qilinmagan maqolalar chop etilmaydi.**

TASHKILIY QO'MITA MANZILI

**100100. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shoxjahon ko'chasi,
5-uy.**

tel.: (+998 71) 253-19-59. . E-mail: science-titli@mail.ru

(+998 90) 266 32 20